
AYOLLAR HAMISHA E'ZOZDA

G'ishtmon mahalla fuqarolar yig'inidagi 2-Madaniyat va axoli dam olish markazida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan «Ayol borki, olam munavvar» deb nomlangan tadbir o'tkazildi. Tadbirga faol ayollar, faxriy onaxonlar taklif etildi va ularga ehtirom ko'rsatildi.



—Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda hududdagi maktab, maktabgacha ta'lim, tibbiyot bo'limlarida mehnat qilayotgan faol ayollarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa tuman Kengashi raisi A. Abdumalikov tomonidan sovg'alar taqdim etildi.



Anjumanda soʻz olganlar tomonidan jamiyat rivojida ayollarning tutgan muhim qismini, ishlab chiqarish, fan, taʼlim, madaniyat va barcha sohalarda mehnat qilayotgan xotinqizlarning faolligi, oila va farzandlar tarbiyasidagi roli alohida eʼtirof etildi. Tadbir davomidagi Vatanni, onani, ayolni madh etuvchi kuy-qoʻshiqlar ishtirokchilarga quvonch

ulasldi.



2020-03-06 18:17:03